

**Amaliy san'at so'z-terminlarining paydo bo'lishi va ularning leksik-grammatik tabiati**

*Urganch davlat universiteti talabasi*

*Qodirova Mashhura*

**Annotatsiya:** maqolada xalqimizning milliy madaniy an'alarini o'zida aks ettiradigan amaliy san'at sohasiga oid ma'lumotlar berib o'tildi. Amaliy san'at terminlari, ularning paydo bo'lishi izohlandi. U bo'yicha qilingan dastlabki tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Amaliy san'at leksikasi, gilamchilik atamalarining grammatik xususiyatlari qisqacha tahlil qilindi. Tarixi, rivojlanishi, va bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berildi.

**Kalit so'zlar:** aspak, noxunak, rishtaxo'rak, bashmaldoq, yostiqpo'sh, kizak piltakach, gajak, bandi qaychi, baldoq nusxa, gugurt quti, ko'zachai dumdor, taroq nusxa, tilla qosh nusxa.

Milliy istiqloq tufayli ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ilm-fanning hamma yo'nalishlarida bo'lgani kabi tilshunoslik sohasida ham o'z ifodasini topmoqda. Chunki "biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur".<sup>1</sup> O'zbek tilshunosligida sohaviy terminlar, adabiy til, xalq so'zlashuv nutqi va shevalar leksikasi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu sohada ancha yutuqlarga erishilgan. Xalqimizning milliy-madaniy traditsiyalari va tarixini bevosita aks ettiruvchi leksik sostavni atroflicha o'rganishda moddiy madaniyat yodgorliklari ishonchli manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini o'zida saqlab, rivojlantirib kelayotgan amaliy san'at tarmoqlarini kuzatish, uning leksikasini ilmiy tadqiq qilish juda zarurdir. Sovet davrida amaliy san'at xalq ommasiga xizmat qiluvchi, uning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi san'atga aylandi. O'zbek naqqoshlari, o'ymakorlari, zardo'zlari, gilamchilari va chevarlari amaliy san'atni davrimiz talabiga muvofiq nodir va noyob namunalar bilan boyitdilar.

Professional leksikada, jumladan, chevarlik leksikasida, so'z-termin hosil qilishning o'ziga xos ko'rinishlari mavjud:

**1. Analogiya usuli bilan nomlash prinsipi.** Chevarlik leksikasida analogiya yo'li bilan vujudga kelgan atamalar so'z-terminlarning eng ko'p qismini tashkil qiladi. Analogiya usuli bilan paydo bo'lgan nomlar semantik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Chevarlik leksikasida analogiya o'xshatish usuli bilan nomlash ikki xil: A. O'xshatish prinsipi. B. Tasviriy o'xshatish prinsipi.<sup>2</sup>

A. *O'xshatish prinsipi.* Bu prinsipda qurol-asbob va tikish turlariga ma'lum predmet, buyum, hodisalar va jondorlarga o'xshatilib nom beriladi. Bu ikki ko'rinishga ega:

a) *shakliy o'xshashligiga ko'ra nom berish.* Masalan, noxunak (toj. noxun tirnoq -ak kichraytish qo'shimchasi, Solishtiring: aspak; asp-ot) yo'rmado'zlarning shakli tirnoqqa o'xshaydigan asbobi qaychi ushturgardan yoki qaychi shuturgardan (ar. shutur tuya, toj, gardan bo'yin) zardo'zlarning tuyaning bo'yniga o'xshatib isalgan, gul kesadigan qaychisi va boshqalar).

b) *ko'rinishning o'xshashligiga ko'ra nom berish.* Bunday nomlash ko'proq tikish turlarida uchraydi. Chunonchi, naqsh tikishda turli tartibda o'rilgan baxyalar turli ko'rinish hosil qiladi va

<sup>1</sup> Karimov A.I., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008.

<sup>2</sup> Т. Турсунова. Узбек тили амалий санъат лексикаси, Фан, -Тош., 1978.

hosil bo'lgan ko'rinishning o'xshashligiga qarab tikish turi nomlanadi. Masalan, arra, suv, dandona, yetaklama, zanjira, mavj, qiloba kabilar.

B. *Tasviriy o'xshatish*. Nusxa atamalarida o'xshatish tasviriy xarakterga ega. Bunda nom, yuqoridagidek, shakl yoki ko'rinishning o'xshashligiga qarab emas, ma'lum obyekt tasvirining aks ettirilishiga asoslanib beriladi. Tasviriy o'xshatishda naqsh yoki nusxa nomi buyumda tasvirlanayotgan obyekt nomidan olinadi. U quyidagi ko'rinishlarga ega:

- a) *osmon mavjudotlari tasviriga o'xshatish*: mohi sitora, oy, moh, xurshid va boshqalar);
- b) *odam va uning a'zolariga o'xshatish*: mardumcha, yak mardu, yak zan, xitoy qizi, abru (qosh), bashmaldoq, chashmu qosh, qoshak va hokazo;
- d) *sanoat va texnika asboblari tasviri asosida nomlash*: aeroplan nusxa, nusxayi traktor, otash aroba, televizor va boshqalar;
- e) *ba'zi bir naqshli buyumlarga o'xshatish*: krepdeshin nusxa, pombarxat nusxa kabi;
- f) *ayrim yozuvlar va shakllarga o'xshatib nomlash*: alifak, bayt, oyat nusxa (arabcha xat yozilgan nusxalar); gajak (toj. kaj-ak), davra (ar. دور - doira) - naqsh nomlari;
- g) *turli predmet, uy-ro'zg'or va bezak buyumlari tasviri asosida nomlash*: bandi qaychi, baldoq nusxa, gugurt quti, ko'zachai dumdor, taroq nusxa, tilla qosh nusxa, choynak-u piyola, qaychi nusxa;
- h) *hayvonlar, qushlar, hashoratlar, mayda jonivorlar va ularning a'zolari tasviri asosida nomlash*: bulbul nusxa, zaboni gov, zuluk nusxa, kaklik qoshi, kapalak, kiyik qoshi, ot tuyog'i, tovus nusxa, chumchuq ko'zi, qo'chqor shoxi kabi;
- i) *o'simlik, gul, meva turlari tasviri asosida nomlash*: atirgul, archa, barg ichida g'uncha, bargixazon, gilos, daraxti marjon, ikki g'uncha, olma guli, ochilmagan g'uncha, sadarayhon, tol bargi, shoxcha nusxa, chornovda kabi.

Chevarlik leksikasida naqsh va nusxa nomlarining o'simlik gul va meva turlari tasviri asosida atalishi eng mahsulli usul hisoblanadi. Chunki badiiy kashta san'atida asosiy o'rinni egallovchi motiv o'simlik motividir.

**2. Materialiga ko'ra nom berish prinsipi.** Chevarlar o'zlari ishlab chiqaradigan buyumlarning tagiga ishlatilgan materialiga qarab, ajratib nomlaydilar. Chunonchi, barqut do'ppi, baxmal so'zana, duxoba do'ppi, ipak jiyak, satin do'ppi, shohi belbog'.

**3. Xoslash prinsipi.** Bu prinsipda paydo bo'lgan nomlar mazmunidan uning kimga yoki nimaga xosligi anglashiladi. Misol uchun, kuyov belbog' (to'y kunlarida kuyovga taqdim etish uchun tikiladigan maxsus belbog'), kuyov do'ppi, to'y do'ppi, to'n jiyak, to'ppi zanona, bozori qalpoq kabi.

**4. Vazifasiga ko'ra nomlash prinsipi.** Chevarlikka oid ayrim predmet, buyumlarning atamasidan uning qanday maqsad uchun foydalanilishi anglashilib turadi. Masalan, ajratgich taxta (chust do'ppini taxtakachlashda bir-biriga yopishmasligi uchun do'ppilarning orasiga qo'yiladigan taxtacha), do'kon kaltak, yelim cho'tka, kalava cho'p, kashtapesh, kizak piltakach, korcho'p, rishtaxo'rak (ipakning lasini oladigan asbob), taxtakach, qaychi gulburi (gul kesadigan qaychi) kabi.

**5. Predmet yoki buyumlarning ishlatilish o'rni va predmetga ko'ra nomlash prinsipi.** Quyidagilar shu prinsip asosida paydo bo'lgan otlardir: beshik yopiq, govrapo'sh, yostiqpo'sh, ishpech, dorpech, choyshab, tag choyshab, oyna xalta, taroq xalta, jilti soat, tizza ko'rpacha kabi.

**6. Naqsh kompozitsiyasiga ko'ra nomlash prinsipi.** Naqsh elementlarining soni va o'rinishiga ko'ra buyumlar bir-biridan farqlanib nom beriladi. Misollar: bir oylik palak,

buttador (zardo‘zi to‘n tipi), darham (zardo‘zi to‘n tipi va zardo‘zi do‘ppi nusxasi), jomai buttadori daraxt, oy palak, olti oylik palak, yulduz palak, o‘n olti gul. (Andijonlik usta Jo‘ravoy aka, chust do‘ppini kizigidagi yarim doiralalar soniga qarab shunday ataydi.)

**7. Ayrim birikmalar va yozuvlar asosida nomlash prinsipi.** Masalan, miru-mir, tinchlik kaptari kabi.

**8. Simvolik tarzda nomlash prinsipi.** Bu prinsipda so‘z ma’nolarini metaforik va metonimik o‘zgartirish usulidan foydalaniladi. So‘z va so‘z birikmalarini simvolik tarzda qo‘llash asosida paydo bo‘lgan bunday nomlar ko‘pincha, naqsh va nusxa nomlari bo‘ladi. Masalan, achosh nusxa, yor andar quchoq, yor bag‘oli yor (bir-birining ichiga kirib turgan g‘uncha tasvirini aks ettiradigan naqsh), yor bag‘oli, injiq (juda mayda tikiladigan chust do‘ppi nusxasi), mashaqqat (juda nozik tikiladigan iroqi do‘ppi nusxasi), nusxayi dodu bodod, sevgi guli (iroqi do‘ppi nusxasi), xunopcha va boshqalar.

**9. Ishlab chiqarish protsessiga ko‘ra nomlash.** Bu prinsipda harakatning qanday qurol vositasida bajarilishi, qanday buyum ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarilayotgan buyumning qismlarini tayyorlash; ishlab chiqarish protsessida paydo bo‘lgan ko‘rinish va harakat usullarini bir-biriga qiyoslash va bajarilgan ishning ko‘rinishiga ko‘ra nom beriladi. Misollar: dazmollash, taxtakachlash, chimdilash; so‘zana tikish, kizak tayyorlash, jiyak o‘rnatish, applikasiya qilish, qog‘oz burash; suv purkash, oq bosish, pardoqlash; xom qolip, bosiriq qilish, pilta o‘tkazish kabilar.

**10. Ishlab chiqarish usuliga ko‘ra nomlash prinsipi.** Chevarlik mahsulotlari ishlanish usuli, tikilish texnikasi jihatidan turli tipga bo‘linib, shu asosda nomlanadi. Misollar: aylantiriq (marg‘ilon nusxa chust do‘ppinning ingichka suv aylantirib tikiladigan bir turi), bigizi (ilma bigizda tikiladigan jiyak va naqshi ilma bigizda tikilgan so‘zana), gulduzi (zar tikiladigan buyumlarning tikish texnikasiga ko‘ra turi), adrma (yo‘rma bigizda tiki ladigan jiyak), paltado‘zi (dupin turi), tepchima (gulsiz duxoba do‘ppi), sanama (guli sanab tikiladigan proqi dupin).

**11. Kishi va joy nomlariga nisbatan nomlash prinsipi.** Chevarlik leksikasida ayrim atamalar kishi otlari, laqab, taxallus va geografik nomlar bilan bog‘lab yaratiladi. Lingvistikada kishi otlariga nisbatan yaratilgan nomlar onomastik (grekcha: onomastike atoqli otlar yig‘indisi, nom berish san‘ati) nomlar, joy nomlari bilan bog‘langan atamalari toponimik (gr. topos joy va onyma- ot, nom) nomlar deyiladi. Tilda toponomastik (toponimik va onomastik) nomlarning paydo bo‘lishi atoqli otlarning turdosh otlarga; turdosh otlarning atoqli otlarga o‘tish hodisasi bilan bog‘lanadi. Atoqli va turdosh otlarning o‘zaro almashinuvi tilning tabiatiga ko‘ra yuz beradigan doimiy hodisadir.<sup>3</sup>

Chevarlik leksikasiga oid toponomastik nomlar kishi va joy otlarining narsa predmet buyumlarga ko‘chishidan hosil bo‘ladi.<sup>4</sup> Misollar: ayub nusxa, musajonov nusxa, bashorat, plechi, saodatxon, andijon nusxa, SSSR nusxa, buxorcha kallapo‘sh, namangan so‘zana, kobuli, chust do‘ppi (joy nomlariga qo‘yilgan) kabi.

Xalqimizning milliy-madaniy an‘analari va tarixini bevosita aks ettiruvchi leksik birliklarni atroflicha o‘rganishda, moddiy madaniyat yodgorliklaridan biri hisoblangan, gilamchilik buyumlari ishonchli manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning leksik tarkibi shunday xazinaki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma‘lumotlar saqlanadi. Xalqning

<sup>3</sup> А. А. Реформатский. Введение в языкознание. М. Учпедгиз, 1960. стр. 40.

<sup>4</sup> Т.Т. Дадахонова. Чеvarлик лексикасида ономастик ва топонимик номлар Ж. «Узбек тили ва адабиёти», №1, Тошкент, 1962.

kelib chiqishi, rivojlanishi, hayoti va madaniyatini leksikada o'z aksini topadi. Bunda amaliy san'at leksikasi muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov A.I., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008.
2. T. Турсунова. Узбек тили амалий санъат лексикаси, Фан, -Тош., 1978.
3. А. А. Реформатский. Введение в языкознание. М. Учпедгиз, 1960.
4. Т.Т. Дадахонова. Чеварлик лексикасида ономастик ва топонимик номлар Ж. «Узбек тили ва адабиёти», №1, Тошкент, 1962.

